



## NEMIS TILI SO'ZLASHUB NUTQIDA QIYOSIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI ISHLATILISHI

Dusbekov Sherali Jumaboy O'g'li

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada frazeologik birikmalarning bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilinmasligi, nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar va frazeologik birliklar ishlatilishi jihatdan bir qancha guruhlariga ajratilganligi, til har doim rivojlanishda va har doim harakatda bo'lishi shu sababli frazeologizmlar ham ko'payib zamoniga moslashgan holda yangi frazeologizmlar kelib chiqishi, frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning ma'lum bir ma'noda ko'chma ma'noga ega bo'lgan holda birikkan so'z ekanligi haqida fikrlar ilgarisurilgan.*

**Kalit so'zlar:** *frazeologizm, semantik yaxlitlik, obrazlilik, ko'chma ma'nolilik, qo'llanilishi chegaralangan frazeologizmlar, eskirgan frazeologizmlar, dialektal frazeologizmlar, ilmiy frazeologizmlar, badiiy frazeologizmlar, so'zlashuv nutqi frazeologizmlari.*

## УПОТРЕБЛЕНИЕ СРАВНИТЕЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РАЗГОВОРЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Дусбеков Шерали Джумабой Сын

**Аннотация:** *В данной статье фразеологизмы не могут быть переведены с одного языка на другой дословно, немецкий и узбекский языки разделены на несколько групп по употреблению фразеологизмов и фразеологизмов, язык постоянно находится в развитии и всегда в связи с распространением фразеологии, новая фразеология приспособляется ко времени, выдвигаются мнения, что фразеология - это сложное слово из двух или более слов, имеющее переносное значение в определенном значении.*

**Ключевые слова:** *фразеология, семантическая целостность, образность, переносное значение, фразеология с ограниченным употреблением, устаревшая фразеология, диалектная фразеология, научная фразеология, художественная фразеология, разговорная фразеология.*

## THE USE OF COMPARATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN CONVERSATION OF THE GERMAN LANGUAGE

Dusbekov Sherali Jumaboy's Son

**Annotation:** *In this article, phraseological units cannot be translated literally from one language to another, the German and Uzbek languages are divided into several*





*groups in terms of the use of phraseological units and phraseological units, the language is always in development and always in motion. Due to the proliferation of phraseology, new phraseology is being adapted to the times, and opinions have been advanced that phraseology is a compound word of two or more words having a figurative meaning in a certain sense.*

**Key words:** *phraseology, semantic integrity, figurativeness, figurative meaning, phraseology with limited use, obsolete phraseology, dialectal phraseology, scientific phraseology, artistic phraseology, colloquial phraseology.*

Frazeologizmlar – bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo'lib, tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko'p aspektli til hodisasi hisoblanadi. Har tilning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruchi vositalardan biri frazeologizmlardir.

Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Nemis frazeologiyasi boy va uzoq tarixga ega. Bunda sof nemis tilidagi frazeologizmlar qatorida chet tilida qabul qilingan, ya'ni international frazeologizmlar ham mavjud. Frazeologik birliklar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsada, ularmi ilmiy va amaliy tadqiq etish nisbatan yosh hisoblanadi. Frazeologiya atamasi yunoncha phrasid-fraza, logos-tushuncha, talimot bo'lib, tilshunoslikning frazeologik birliklarini o'rganuvchi bo'lim deb talqin qilinadi. Til ilmida esa ular frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, ibora, idioma, kabi terminlar ostida o'rganilib kelingan. Frazeologik birliklarni o'rganish va tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan. Frazeologiya sohasini o'rganishning bir muncha qiyin tomonlari bo'lib avvalambor tilshunoslikning bir qator fanlari leksikologiya, stilistika, fonetika, grammatika, mantiq, mamlakatshunoslik va tarix kabi fanlar malumotiga suyangan holda o'rganishni taqqazo etadi. Frazeologiya fani boshqa tilshunoslikning sohalariga nisbatan biroz yosh soha hisoblanadi, XX asrning 50 yillaridan boshlap leksikalagiyadan ajralib chiqa boshladi. Ushbu bo'limning mustaqil soha sifatida bir qancha olimlarning beqiyos hissasi bor lekin tan olib aytishimiz kerak-ki bu borada rus akademiki V. V. Vinogradovning hizmatlari ko'zga ko'rinar darajada ulkan. Hech ikkilanmay ushbu olimni "frazeologiya otasi" deb ham atashimiz mumkin. Umuman olganda frazeologizmlar donishmand xalq mahsuli bo'lib tilni bir qadar jozibador qilishga va shu bilan bir qatorda jahlni, piching, kinoyalarni ta'sirli qilib ifodallashga yordam beradi. Frazeologizmlar faqatgina tilning bezagi sifatida qarab bo'lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, xususan nemis tili frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Ko'plab tillarda bo'lgani kabi nemis tilshunosligida ham bu sohada izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar talaygina. Frazeologiya sohasi rivoji hissa qo'shgan nemis tilshunoslari jumaladan, U. Fiks, X. Burger T. Shippan, D. Stepanova, I.I. Cherneshova, A. Rotkegel va boshqalar.





Jahon tilshunosligida frazeologizmlar keng ma'noda va tor ma'noda tushuniladi. Frazeologiyaning keng ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibida maqollar, matallar va aforizmlarni kiritadilar, tor manoda frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma manoli tufg'un birliklarni o'rganish bilan cheklanadilar. Frazeologik material murakkab va ko'p aspektli bo'lgani uchun keying yillarda u turli xil metodlar, usullar yordamida o'rganilmoqda. Bu o'rinda frazeologik birliklarni o'rganishning quyidagi metod va usullarini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi: Identifikatsiya metodi. Uning yirik vakillari sifatida yetuk tilshunos olimlar Charl Balli va A.V. Kuninlarni aytib o'tish joiz. Kontekstologik metod. Uning vakili N.N. Amosova bo'lib, asosan matnlar tarkibida keladigan frazeologik birliklarni o'rganish. Shuningdek, variatsion metod (V.L.Arxangelskiy), frazeologik applekatsiya metodi (V.P.Jukov), strukturaltipologik metod (L.I.Rayzenzon, Y.K.Avaliani, Y.P.Solodub), komparativ metod (S.G.Gavrin), iboralarni semantik doiralar asosida o'rganish metodi (M.G.Tashev), leksema va frazemalarni denotativ va konnotativ semalarga ajratibo'rganishmetodi(M.M.Kopilenko)kabilar.Yuqoridasanabo'tilganmetodlarbir-birinito'ldiradi va frazeologik birliklarning xilma-xil turlari, paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini, valentlik imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.


Frazeologik birliklar mazmun planiga ko'ra leksik birliklarga yaqin turadi, ifoda planiga ko'ra ular sintaktik birlik (so'z birikmasi, gap)larga yaqindir. Ammo frazeologik birliklar so'zga ham, so'z birikmasiga ham, gapga ham to'la ma'noda teng emas. Frazeologiya masalalarini o'rganish, bu sohani tadqiq etish, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bundan frazeologiya sohasiga doir o'rganilmagan muammolar qolmadi degan xulosa kelib chiqarimasliklozim.

S.K. Kensboyev frazeologiyani tor ma'noda tushunish uchun bevosita asos bo'ladigan guruhlarini alohida ajratib ko'rsatgan. Tilshunoslikda "frazeologiyaning obyektini alohida ajratilgan til birligi sifatida qo'llanuvchi turg'un so'z birikmalaridir" degan fikr mavjud. Bu fikr olg'a surilgach, tilda "turg'un birikma" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi ilmiy ishlar yuzaga keldi. Frazeologik birliklar turg'un birikmalardan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar:

a) semantik yaxlitlik; b) obrazlilik; c) ko'chma ma'nolilik.

Har bir tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlarning semantik, ya'ni ma'no jihatdan va tarkibida kelgan so'zlardan kelib chiqib frazeologizmlarni ko'plab turlarga bo'lib, ajratib chiqish mumkin, ya'ni insonlarning turmush tarzini, tashqi qiyofasini, aql idrokini, hayotiy tajribasini, qiynchiliklari kabi frazeologizmlarga ajratishimiz mumkin.

Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar shu millatga mansub insonlar hayot tarzi, yashash sharoitidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi va tilimizda ishatiladi. Frazeologiya sohasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar olib borish frazeologiyaning umumnazariy muammolarini hal etishga keng yo'l ochadi. Umuman olganda frazeologik birikmalarning shakllanish manbalarini etimologik jihatdan tahlil etishga





nisbatan ancha keng mazmunga ega. Bu umumfilologik muammo bo'lib, eng qadimgi, dastlabki filologik modellarning shakllanish bosqichlarini aniqlash muhim semiotik masalasanaladi.

Nemis tilidagi frazeologizmlar o'zbek tilidagi frazeologizmlar bilan sinonim ham bo'ladi va ularni qiyosiy tahlil usulda o'rganamiz. Masalan nemis tilidagi "Man empängt den Mann nach dem Gewand und entlasst ihn nach dem Verstand" frazeologizmi o'zbek tilidagi "Kiyimiga qarab kutib olinadi va aqliga qarab kuzatib qo'yiladi" frazeologizmi bilan qiyoslashimiz mumkin. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, frazeologizmlarni qo'llashda, iboralarning grammatik va leksik negizida qandaydir o'zgarishlar ro'y beradi: masalan, pashshadan fil yasama! U doim pashshadan fil yasaydi! Aus einer Mucke einen Elefanten machen! Er macht immer aus seiner Mucke einen Elefanten! Wasser ins Meer tragen, Wasser ins Haus tragen, Wasser in den Garten tragen (bekorchilik qilmoq).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, frazeologizmlarning asosiy tomoni shundaki, frazeologik birikmalarning bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilinmasligidadir, chunki frazeologizmlarning ma'nosi birikma orasida ishtirok etuvchi so'zlarning birlamchi ma'nosiga bog'liq emas.

Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar va frazeologik birliklar ishlatilishi jihatdan bir qancha guruhlariga ajratilgan, ya'ni qo'llanilishi chegaralangan frazeologizmlar, eskirgan frazeologizmlar, dialektal frazeologizmlar, Ilmiy frazeologizmlar, badiiy frazeologizmlar, so'zlashuv nutqifrazeologizmlari.

Til har doim rivojlanishda va har doim harakatda bo'ladi, shu sababli frazeologizmlar ham ko'payib zamoniga moslashgan holda yangi frazeologizmlar kelib chiqadi. Frazeologizmlar bu, ikki yoki undan ortiq so'zlarning ma'lum bir ma'noda ko'chma ma'noga ega bo'lgan holda birikkan so'zlardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси Т.: Mumtoz so'z,2011
2. ЭмироваА.М.РусскаяфразеологиявкоммуникативномаспектеТ.:Фан,1988
3. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. Ученые зап. ЛГУ. Сер.Филол.наук.Вып.24.Л.:1956
4. Бабкин А.М. Лексикографическая разработка русской фразеологииМ.:1964.
5. Begmatov E. Nomlar va odamlar Т.: Fan,1966
6. Büchmann. Geflügelte Worte М.:Bassermann Verlag,2002

